my.gov.uz

Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва
уй-жой коммунал
хўжалиги вазирлиги.

№ 7562-0666-f0de-c5a2-dbd7-3413-7150
Хужжат яратилган сана: 2024-09-23
Ариза рақами: 147209702

Хужжат берилган: "TAXTAPUL AVENUE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
СТИР: 308216634

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВА УЙ-ЖОЙ КОММУНАЛ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИ

Тошкент шахар Қурилиш бош бошқармаси
Лойиҳа-смета ҳужжатларини келишиш бўйича Архитектура ва шаҳарсозлик кенгаши ишчи органининг
2024-09-23 даги 147209702 -сонли

**ХУЛОСАСИ**

| т/р | Тақдим этиладиган маълумотлар | |
|---|---|---|
| 1. | Ариза рақами: | 147209702 |
| 2. | Мурожаат этувчи Лойиҳа ташкилотининг номи: | "PRO UNITI GROUP" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT |
| 3. | Лойиҳа-смета хужжатларининг буюртмачиси номи: | “TAXTAPUL AVENUE” МЧЖ |
| 4. | Объект манзили: | Шайхонтоҳур тумани, Тахтапул МФЙ, Тахтапул кўчаси, 51-уй |
| 5. | Лойиҳа-смета хужжатларининг номланиши: | Ер остида автотураргоҳ, пастки қаватларида савдо ва маиший хизмат кўрсатиш объектлари жойлашган кўп квартирали турар-жой |
| 6. | Архитектура-режалаштириш топшириғининг реквизитлари: | 1726-1726277-101210 |

## Лойихани кўриб чиқиш натижаси

| т/р | Категория | Натижа | Изох |
|---|---|---|---|
| 1. | Сўровноманинг тўғри тўлдирилганлиги: | Ижобий | |
| 2. | Объект бош режасининг ечими тўғри топилганлиги: | Ижобий | |
| 3. | Объектнинг меъморий ечими тўғри топилганлиги: | Ижобий | |
| 4. | Лойиҳада автотураргоҳ масаласи ҳал этилганлиги: | Ижобий | |
| 5. | Қурилиш чизиғига амал қилинганлиги: | Ижобий | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **6.** | Ситуацион планда аниқ кўрсатилганлиги: | Ижобий | |
| **7.** | Ёнғин ҳавфсизлиги ва санитария талабларига амал қилинганлиги: | Ижобий | |
| **8.** | Лойиҳада имконияти чекланган шаҳсларинг манфаатлари ҳисобга олинганлиги: | Ижобий | |
| **9.** | Лойиҳада энергиясамарадорлик талабларига амал қилинганлиги: | Ижобий | |
| **10.** | Лойиҳа ташкилоти лицензия орқали рухсат берилган соҳа доирасидан ташқари объектнинг лойиҳаси ишлаб чиқилганлиги: | Ижобий | |
| **11.** | АРТ талабларидан четга чиқиш: | Ижобий | |

**Алоқадор ташкилотларнинг хулосалари:**

**Ҳудудий ёнғинга қарши назорат хизмати:** Келишилган;
**Қўшимча маълумотлар:** “Sizning 10.09.2024 yildagi 147209702-ariza raqamiga” Shayxontohur tumani Favqulodda vaziyatlar bo`limi, Shayxontohur tumani Taxtapul MFY, Taxtapul kuchasi, 51-uy manzilida joylashgan "Pastki qavatlarida savdo maishiy xizmat ko'rsatish bo'lgan ko'p qavatli turar joy binosi" qurish uchun ishlab chiqilgan eskiz loyihasi o`rganib chiqildi. O`rganish natijasiga ko`ra ishlab chiqilgan eskiz loyihaga shaharsozlik soxasidagi normativ hujjatlarda keltirilgan barcha yong`in xavfsizligi talablari hususan balandligi 28 m dan ortiq bo'lgan binolarda zinapoyalar tutunsiz bo'lishi kerak. Ikki zinapoyadan biri yoki ularning soni ko'p bo'lgan zinapoyalarning 50% H1 tipidagi tashqi havo zonasi orqali ochiq tutunsiz yo'lak bo'ylab kirish bilan ta'minlangan - masalan, ochiq balkon yoki ochiq sirlanmagan lodjiya. Qolgan zinapoyalar H2 va H3 tutunsiz turlari bo'lishi mumkin. ShNK 2.08.02-09* 2.139-band, hamda zilzilabardoshlilik normalariga alohida e`tibor qaratilsin. Qurilishi rejalashtirilgan bino bo`yicha ishchi loyiha hujjatlari ishlab chiqilganidan so`ng, Favqulodda vaziyatlar xizmatiga taqdim etilishi tavsiya etiladi.;

**Ҳудудий санитария-эпидемиология хизмати:** Келишилган;
**Қўшимча маълумотлар:** Toshkent shaxar sanitariya – epidemiologic osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasining Shayxontohur tumani bo’limi tomonidan, Sizning 10.09.2024 yildagi 147209702 – sonli arizangizga asosan, Shayxontohur numani, «Taxtapul» MFY, Taxtapul ko’chasi, 51 – uy manzilida joylashgan, «TAXTAPUL AVENUE» MCHJ ga tegishli xududda «Yer ostida avtoturargoh, pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko’rsatish ob’yektlari joylashgan ko’p kvartirali turar joy binosi» ni qurish bo’yicha taqdim etilgan eskiz loyiha xujjatlari o’rganib chiqildi va quyidagilarni ma’lum qiladi. Ob’yektning eskiz loyihasi «PRO UNITI GROUP» MCHJ loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan. O’zbekiston Respublikasining 2.07.01-03-sonli SHNK «Shaxarsozlik. Shaxar va qishloq axoli punktlari xududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish» nomli shaxarsozlik normalari va qoyidalarining 21.1-bandiga asosan turar-joy binolari, turar-joy va jamoat, shuningdek sanoat binolari o’rtasidagi masofalar quyosh nurining tushishi (инсоляция) va yoritilganlikni xisoblashlar asosida, asosiy turar-joy binolari va xonodonlari yonidagi xovlilarning ko’rinishi chegalari talablariga muvofiq qabul qilinishi zarur. Ko’p xonodonli turar-joy uylarining uzun tomonlari o’rtasidagi masofalar (xonalarning yaqqol ko’rinmaslik talablaridan kelib chiqqan xolda) quyidagicha bo’lishi kerak. Balandligi 2-3 qavat bo’lgan turar-joy binolari uzun tomonlari orasidagi masofalar 15 m. kam bo’lmagan, 4-5 qavatli turar-joy binolari uchun - 25-30 m. kam bo’lmagan, yashash xonalarida derazalari bo’lgan ushbu binolarning yon tomonlari uchun - 10 m. dan kam bo’lmagan, 9 va undan ko’p turar-joy binolari uzun tomonlari o’rtasidagi masofa - 40-45 m. dan kam bo’lmagan va yashash xonalarida derazalari bo’lgan ushbu binolarning yon tomonlari uchun дан - 20-25 m. dan kam bo’lmagan masofalarda joylashtirilish belgilab qo’yilgan. Mavjud mavzelarning ko’p xonadonli binolari oralig’ida sport maydonchalari, bolalar o’yin maydonchalari, kiyim-kechak quritish maydonchalari,

avtomobillarning vaqtinchalik to’xtash joylari, maishiy chiqindilarni vaqtinchalik yig’ish maydonchalari ko’zda tutilishi kerak. Jumladan: O’zbekiston Respublikasining «Axoli punktlari xududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish» nomli 0339-16-sonli sanitariya qoyidalari va me’yorlariga asosan turar-joy binolaridan 15-20 metr masofada 0,3-0,6 kvadrat metr maydon xisobidan xar bir maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o’yin maydonchalari, turar-joy binolaridan 5-10 metr masofada 0,25-0,15 kvadrat metr maydon xisobidan katta yoshdagilar uchun dam olish joylari, turar -joy binolaridan 30-40 metr masofada 0,3-0,35 kvadrat metr maydon xisobidan jismoniy mashg’ulotlari uchun sport maydonchalari bo’lishi va turar-joy binolaridan shu jumladan oynasiz yon tomonlaridan 10 metr masofada 10 tagacha, 15-12 metr masofada 11-50 tagacha, 25-15 metr masofada 51-100 tagacha, 50-25 metr masofada 101-300 tagacha avtomobillarni saqlash joylari ko’zda tutilishi kerak. Bundan tashqari «O’zbekiston Respublikasi sharoitida turar-joy xududlaridan qattiq maishiy chiqindilarni tozalash sanitariya talablari to’g’risida» gi 0297-11-sonli sanitariya qoyidalari va meyorlariga asosan turar-joy binolaridan 20 metr masofada chiqindi yig’ish maydonchalari tashkil etilishi kerak. Toshkent shaxar sanitariya – epidemiologic osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasining Shayxontohur tumani bo’limi - yuqorida ko’rsatib o’tilgan me’yoriy talablarni bajarilishi sharti bilan, Shayxontohur tumani, «Taxtapul» MFY, Taxtapul ko’chasi, 51 – uy manzilida «Yer ostida avtoturargoh, pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko’rsatish ob’yektlari joylashgan ko’p kvartirali turar joy binosi» ni qurish bo’yicha xujjatlarni , yonida joylashgan qo’shni binolar bilan kelishilgan xolda, o’rnatilgan tartibda rasmiylashtirilishiga e’tiroz bildirmaydi. ;

**Хулосани тасдиқлаган ходим:** O`zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi;




**Маъқулланди:**

**1. Хулоса берувчиларнинг хулосасида кўрсатилган талабларни бажариш, мухандислик тармогидан химоя масофаси сақлаш ёки ўз хисобидан кўчириш, дарахтларни сақлаб қолиш шарти билан, юридик хужжатга эга тегишли ер майдони қисмида лойиҳа ишларини давом эттириш.**

**2. Лойиҳалаш жараёнида АРТда кўрсатилган талабларни бажариш ва ШНК 2.07.01-23 нинг 416 банди 29 жадвали талаблари асосида, яъни турар жой, жамоат ва дам олиш масканларида автотураргоҳларни ҳисоблаш нормалари асосида ишлаб чиқиш талаби белгиланди.**

**Қуйидаги талаблар: Лойиҳада келишиб берилган барча бино ва иншоотларда тунги ёритиш тизимини ўрнатиш талаби белгилансин ва ушбу талаб лойихада кўрсатиб ўтилсин.**

**Кенгаш аъзолари томонидан юқорида кўриб чиқилган лойихалар юзасидан ШНҚ асосида хар бир берилган талаб ва шартлар тегишлилиги бўйича назоратга олиш ва ушбу ишлар амалга оширилмагунга қадар Тошкент шахар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги сохасида назорат қилиш инспекцияси бино фойдаланишга қабул қилинмаслиги назоратга олсин.**

**"Худудий электр тармоқлари" АЖнинг Тошкент шахар филиали, "Hudud gaz poytaxt" газ таъминоти филиали, Тошкент шахар "Сув таъминоти" МЧЖ директорлари хар лойихани аниқ хисоб китобларга таянган холда юкламалар яратиш шартларини аниқ белгилаб берсин. Белгиланган меъёрлардан ошикча юкламаларда ишлаётган худудларда коммуникация тармоқларига уланишга йўл қўймасин.**

**Экология, атроф-мухитни мухофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг Тошкент шахар бошқармаси хар бир худудни ўрганиб, юқоридаги хар бир лойихалар учун иқлим шароитига мос бўлган айланаси 18 см.дан, баландлиги 3 метрдан кам бўлмаган дарахтлар, 6 литрдан кам бўлмаган буталар экилишини назорат қилсин. Лойиҳалаш жараёнида атроф муҳитга таъсир кўрсатилиши тўғрисидаги баёнот лойиҳаси (ЗВОС) олиш шарти белгилансин.**

**Лойихада муҳандислик тармоқларининг юкламалари инобатга олган холда техник шартлар олиш ва ушбу техник шартлар талабларини бажариш хамда уларга туташ худудларининг кўкаламзорлаштириш (дарахтлар, буталар, бошқа ўсимликлар ва навнихолларни экиш) майдонлари лойиха учун ажратиладиган ер участкалари умумий майдонинг 25 фоизидан кам бўлишига йўл қўйилмаслик талаби белгилансин.**

**Лойиҳа ташкилотлари томонидан лойиҳалаштирилаётган биноларда углеводородлар ва электр энергияси истеъмолини камайтириш мақсадида, энергия тежамкор қурилиш материалларидан фойдаланиш, иссиқ сув таъминоти, ёритиш ва бивалент иситиш тизими учун фотоэлектрик тизимлар, гелиоколлекторлар ва иссиқлик насосларини ўрнатиш, мухандислик тармоқларини хам инобатга олинсин.**

**Лойиҳаларни кўриб чиқиш натижаси бўйича мутасадди бошқармалар ўз йўналиши бўйича маъсул эканлиги белгилаб қўйилсин.**

**Мазкур ҳудудда лойиҳа асосида қурилиш ишларини олиб бориш учун ён қўшниларни розилигини олиш тавсия этилади.**

**Ушбу хулоса қурилиш ишларини бошлашга асос бўлмаслигини, шунингдек, хулоса талаблари бажарилмаган тақдирда хамда тегишли ер майдони чегарасидан чиқиб кетган холда лойихалаш ишлари олиб борилган тақдирда қонунчиликда белгиланган тартибда хулосани бекор қилинишига сабаб бўлиши мумкинлигини ва бундай ҳолатда жавобгарлик лойиҳа ташкилоти зиммасига юклатилишини маълум қиламиз.**

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини repo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

5486